

## O'QUVCHILARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7806240>

**Vapayeva Fazilat Shuhratovna**

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi*

### **Abstrakt**

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi qulay ta'limiylar muhitni tashkil etishda o'quvchilarining faolligini ta'minlash, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarga qiziqishlari etarli darajada bo'lмагan bolalar bilan faol o'quvchilarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini tashkil etish asosida ularda ijodiy yondashuv ko'nikmalari va qiziqishlar shakllantirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalardan hisoblanadi.

### **Kalit so'zlar.**

*refleksiv ko'nikmalar, modellashtirish, ob'ektiv nazorat, subyekt nazorat.*

### **Abstract**

Ensuring the activity of students in the organization of a comfortable educational environment that serves the formation and development of reflexive skills in students, cooperative learning of active students with children who are not sufficiently interested in classes and extracurricular activities. On the basis of the organization of activities, paying special attention to the formation of creative approach skills and interests in them is one of the important tasks.

### **Key words.**

*reflexive skills, modeling, objective control, subjective control.*

### **Абстрактный**

Обеспечение активности учащихся в организации комфортной образовательной среды, служащей формированию и развитию у учащихся рефлексивных способностей, совместное обучение активных учащихся с детьми, недостаточно заинтересованными в занятиях и внеурочной деятельности, на основе организации деятельности, уделяя особое внимание формированию навыков творческого подхода и интереса к ней, является одной из важных задач.

### **Ключевые слова.**

*рефлексивные способности, моделирование, объективный контроль, субъективный контроль.*

## Kirish

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish va samaradorligini oshirish yo'nalishlarida belgilangan maqsadlarga erishishda o'quvchilarning moyilligi, qiziqishi, ehtiyojlari va faolligi darajasi, imkoniyatlari, shaxsiy xislatlari, shuningdek, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning murakkab tomonlarini faol o'rganish va shular asosida takomillashtirish zarur hisoblanadi.

## Adabiyolar Tahlili

V.V.Sergeevaning fikriga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish uchun turli usullar va metodlarni qo'llash; nazoratni ob'ektiv amalga oshirish va nazorat natijalarini tahlil qilish; xatolarni o'z vaqtida tuzatish; tekshiruvchining kompetentligi yo'nalishidagi talablarni bajarilishi zarur [105, 27-b.].

Shunday ekan, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda o'qish va o'rganishga, mustaqil ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishga o'quvchilarda moyillik, qiziqish va ehtiyojlar shakllantirish, o'quvchilar o'zlarining ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish yo'nalishlaridagi funktional vazifalarini anglash, tahlil qilish, shuningdek, o'zini-o'zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish uchun imkoniyat yaratuvchi ta'limiy muhitni vujudga keltirish zaruriyatlarini ham inobatga olish muhim.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishidagi mazkur jarayonlar o'quvchilar uchun nafaqat ta'limiy funktsiyalarni bajarishi, balki ularda ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishga ijobiy munosabatlarni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi muhit vazifasini ham bajarishi zarur.

## Muhokama

Demak, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilar uchun quyidagi shart-sharoitlar yaratilishi zarur:

- O'quvchilar o'zini ko'proq mustaqil va o'zini o'zi boshqaruvchi sub'ekt sifatida his etishi, erkin so'zlashi va faol ishtirok etishi;
- o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonlarida ular yetakchi rolni egallashi, o'zini o'zi rivojlantirishga intilishi; kelgusida o'zi qiziqqan kasb-hunarni egallashi uchun ta'lim-tarbiya manbasi sifatida xizmat qiladigan hayotiy tajribalarni egallashi;
- ta'lim va mustaqil ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishidagi mavjud sun'iy to'siqlarni bartaraf etishi uchun muhim hayotiy muammolarni hal etish

yo'nalishida amaliyotni o'rganishi; o'qish, o'rganish, mustaqil ta'lism olish va kasb-hunar o'rganishi uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo'lishi;

- o'qish, o'rganish, mustaqil ta'lism olish va kasb-hunar o'rganishning keljakdagi amaliy ahamiyati va zaruriyatini anglab etishi; o'qish, o'rganish, mustaqil ta'lism olish va kasb-hunar o'rganishga yuqori darajada intilish hissiyotlarining vujudga kelishi;

- o'qish, o'rganish, mustaqil ta'lism olish va o'zi tanlagan kasbni egallashning ahamiyati va nufuzini tushunib etishi;

- o'zida ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarni shakllantirishi va rivojlantirishi; o'z faoliyati natijalari va imkoniyatlari darajasini ob'ektiv baholashi, refleksiv tafakkurining rivojlantirishi; uzluksiz ta'lism olishning ahamiyati va zaruriyatini tushunib etishi. [1]

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish tizimini tashkil etish va boshqarish jarayonlarini modellashtirishda ta'lism-tarbiya jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihatlarini hamda o'quvchilarning shaxsiy sifatlari takomillashuvini ta'minlash uchun imkoniyat yaratuvchi vaziyatlarni vujudga keltirish zaruratlarini ham inobatga olish zarur.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish tizimini tashkil etish va boshqarish jarayonlari modelini ta'lism-tarbiya jarayonlarining barcha shakllarini o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi, belgilangan maqsad va vazifalarning yo'nalishini ifodalovchi va ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizim sifatida tasvirlash mumkin.

Keltirilgan modellarga o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish tizimini tashkil etish va boshqarish uchun andoza sifatida xizmat qiladi deb aytish mumkin. Chunki model muktab va maktabdan tashqari ta'lism muassasalaridagi ta'lism-tarbiya jarayonlarining barcha shakllarini o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlovchi, belgilangan maqsad va vazifalarning yo'nalishini ifodalovchi va ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizim sifatida ishlab chiqilgan. [2]

## Natija

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda oldindan belgilangan vazifalarni yangilash va takomillashtirish bo'yicha qayta aloqa nafaqat muktab va maktabdan tashqari

ta'lim jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash samaradorligi bo'yicha, balki har bir ta'lim muassasasida tashkil etiladigan o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligiga ko'ra, yaratilayotgan yangiliklarning mazmun-mohiyatiga va vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra, ya'ni zaruriyatga qarab muntazam amalga oshirib borilishi mumkin.

Demak, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida qayta aloqaning ta'minlanishi mazkur jarayonlarni takomillashtirish vositasi sifatida vujudga keladi va u vujudga kelayotgan vaziyatlarga mos ravishda o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tashkilotchilari hisoblangan o'qituvchilar va rahbarlar o'z funktional vazifalarini samarali amalga oshirishi, ya'ni maktab va mактабдан tashqari ta'lim muassasalarida o'quvchilarning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun etarli darajada ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar yaratib berishi muhim. Chunki o'quvchilarning yuqori darajadagi samarali faoliyati ularning folligi, uyushqoqligi, o'zaro ahilligi va moyilligiga bog'liq bo'lib, refleksiv ta'limiy muhit, o'zaro munosabatlar har bir o'quvchining faolligiga va qiziqishlarini rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. [3]

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar nafaqat zaruriy axborotlar, ma'lumotlar va ilmiy metodik mahsulotlar bilan ta'minlanishi, balki o'zlashtirishi zarur bo'lgan tushunchalardan kelgusida foydalanishi zaruriyati bo'yicha ham ma'lumotlar berilishi muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning yuqori darajadagi samarali faoliyatini ta'minlash uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, qiziqishlari darjasи, qobiliyatлari, shaxsiy xislatlari, shuningdek, ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o'rganish va shular asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan qо'shimcha vazifalarni belgilash hamda ularni amalga oshirish uchun turli tadbirlarni tashkil etish zarur.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining asosiy xususiyatlaridan biri mazkur jarayon o'quvchilarda o'zini-o'zi boshqarish va rivojlantirish asosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy

sifatlarini shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. [4]

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida refleksiv ta'limi muhitni shakllantirishda shunday shart-sharoitlarni yaratish zarurki, bunda o'quvchilarning har biri o'z faoliyatini, xatti-harakatlari natijalarini mustaqil o'rganishi va tahlil qilishi, dars intizomiga bo'lgan munosabatlarini tanqidiy anglash asosida o'qish o'rganish, mustaqil ta'lif olish va kasb-hunar o'rganishning ahamiyati va zaruriyatini tushunib etishi hamda bugungi yaratilayotgan shart-sharoitlarni ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'lsin.

### XULOSA

Shunday ekan, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish modelida keltirilgan ta'lif, mustaqil ta'lif va mактабдан ташқари та'lif jarayonlarini tashkil etishda tizimli yondashuvni hamda o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayoniga refleksiv yondashuvni joriy etish asosida mazkur jarayonlarni samaradorligini ta'minlash mumkin.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishni va uning mazmunini o'quvchilarning moyilligi va qiziqishlari darjasini, shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlarining o'zgarishiga mos ravishda yangilash va takomillashtirish zaruriyatni o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish modelida alohida inobatga olingan. Mazkur modelda o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillarning ham o'zaro ta'siri nazarda tutilgan.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish modelida keltirilgan ta'lif, mustaqil ta'lif, tarbiyaviy munosabatlar hamda mактабдан ташқари та'lif jarayonlarini yaxlit, dinamik tizim ko'rinishida amalga oshirish zarurati keltirilgan. Mazkur zaruriyat o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ta'minlashda tizimli va refleksiv yondashuv texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ifodalaydi.

Demak, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonlarining natijaviyligi asosida belgilangan vazifalarni tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida qayta aloqa aloqa ta'minlanishi zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abulxanova K.A. Strategiya jizni. – M.: Myisl, 1991. – 299s.
2. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – M.: MGU, 1988. – 415s.
3. Anikin V.G. Ekzistentsialnaya refleksiya lichnosti v problemno-konfliktnykh situatsiyax / V. G. Anikin. – M., 2000. – 243 s.
4. Arbuzova, E.N. Razvitie kriticheskogo myshleniya pri obuchenii biologii / E. N. Arbuzva // Biologiya v shkole. – 2011. – № 8. – S. 29–36.